

ЕКОТУРИЗМНИНГ ИҚТИСОДИЙОТДАГИ МУҲИМ ҶИҲАТЛАРИ

Zokir Rustamovich Sodikov

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasi dotsenti, i.f.n.
Toshkent, O'zbekiston.*

Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davrida turizm sayohatdan ko'ra ko'proq, innovatsiyalar va umuman zamonaviy dunyoda erishish mumkin bo'lgan jarayonlar borasidagi sohalardan biri hisoblanadi. Shu bois, turizm o'zining fazoviy diapazonini yoki ufqini oiladan boshlab, kosmosgacha kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lgan sektor sifatida talqin qilinishi mumkin. Bundan tashqari, bugungi kunda turizm globallashib borayotgan zamonaviylikdagi iste'molchilikning bir ko'rinishi sifatida ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Shuning uchun turizm shunchaki bir vizual tajriba emas, balki, real aniqlikni o'zida mujassamlashtirgan tajriba tizimidir.

Hozirgi kunda turizm nafaqat kishilarning oddiy yashash joyidan uzoqlashishi va boshqa manzilga vaqtincha ko'chishi, balki bu jarayonda kishilar bilan bog'liq faoliyatlarni tashkil etilishi va amalga oshirilishi, zarur obyektlarni ko'rilishi va xizmatlarni bajarilishi kabi vazifalarni o'zida mujassam qilgan tizim sifatida ham qaralishi tabiiy hisoblanadi. Turizm hodisasi inson hayotiga zarurat sifatida kirib kelgan bo'lib, u o'z-o'zidan yoki instinktiv tarzda qo'llaniladigan ko'ngilochar turizm insoniyat paydo bo'lganidan beri va ayniqsa XXI asrda keng ko'lamli izlanish va rivojlanishga ega bo'lgan ongli faoliyatlardan biri bo'lib, ketgandir.

Turizm - dam olish, ishbilarmonlik yoki boshqa maqsadlarda ketma-ket bir yildan ortiq bo'lmagan muddatda odatdagi muhitdan boshqa joylarga tashriflar qilish hamda u yerlarda sayohat qilib qolish faoliyati sifatida bilinishi mumkin. Zero, turizm dam olish sifatida hech qachon dam olish, hordiq chiqarish va zavqlanish kabi faoliyatlardan iborat jarayonni anglatmaydi, balki, turizm har doim siyosiy va axloqiy qadriyat doirasida faoliyat olib boradigan tizim sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun turizm nafaqat jahonga chiqish mexanizmi, balki o'zimizni bu jahonga namoyish qilish uchun muhim mexanizm hamdir.

Turizmni faoliyat sohasi sifatida ajratib turadigan asosiy elementlari mavjud bo'lib, ular o'ziga xos xarakterga ega hisoblanadi. Jumladan, turizm, albatta, majburiy ravishda sayohatni taqozo qiladi, lekin kishilarning bu sayohat uchun ko'chishlar vaqtinchalik degan g'oyaga asoslanadi. Shuningdek, turizmda motivlar bir yoki bir nechtdan manbalardan kelib chiqadi. Zero, ko'pincha insonlar turizmni zavqlanish motivlari bilan bog'liq hisoblashga moyil bo'lib qolgan, ammo, aslida sayohat uchun asos biznes, ta'lim, sog'liq, din va boshqa shu kabi omillar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, turizm jarayonlarining asosini tashkil etuvchi transport, turar joy, marketing

tizimlari ko'ngilochar tadbirlar va attraksionlarni ko'rishga xizmat qiladigan infratuzilmalar bo'lishini talab etadi.

Turizm turlari xilma-xil va har xil yo'nalishlardan iborat bo'lib, ularning har birining o'ziga xos jihatlari va maqsadlari mavjuddir. Xususan, bu borada ekologik turizmning zamonaviy jihatdan o'ziga xos maqsadi mavjud bo'lib, u milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash jarayonida tabiatga zarar berishni oldini olish va minimallashtirishning ahamiyati xususida jamiyatda tushuncha va tasavvur hosil qilishdan iboratdir. Shuningdek, jahon hamjamiyatida baynalmilallashuv chuqurlashib borayotgan sharoitda ekologik turizmning kishilar hayotida tutgan o'rni va samarasini tushuntirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Inson bilan tabiatning asrlar davomida davom etib kelayotgan o'zaro ta'siri inson tafakkurida ham, jamiyat tafakkurida ham muhim o'zgarishlarga olib kelgan. Ushbu o'zgarishlardan so'ng ekologiyani bir fikr oqimi doirasida baholash qiyin bo'ldi. Bundan tashqari, butun dunyoda ekologiya g'oyasiga ahamiyat ortib borayotganligi sababli turli xil fikrlar paydo bo'ladi. Garchi turli xil insoniy va ijtimoiy qarashlar mavjud bo'lib tuyulsa ham, bu borada konsensusga erishilgan masalalar ham mavjud. Masalan, bu vaziyatlardan biri ekologik muammolar asosan ishlab chiqarish va iste'mol munosabatlaridan kelib chiqadi.

Aynan, globallashuv jarayoni avj olib borayotgan davrda zamonaviy jamiyatlarda "men"dan tashqari hamma kishi va barcha narsa "boshqa"dir. Agar bu "boshqa" bio-region, o'rmon yoki qarag'ay bo'lsa, u "obyekt" hisoblanadi va bu "obyekt" endilikda tor doiradagi maqsadlarda insonlar xohlagancha foydalanishi mumkin bo'lgan "narsa" holatiga kelib qoladi. Natijada yashil tartib haqida kerakli ishlar bajarilmaganligi va tushuntirilmaganligi uchun dunyo duch keladigan ekologik muammolar yetarli darajada tasavvur qilinmaydi.

Ekologik tafakkurda hech bir narsani bir-biridan alohida ko'rib chiqish imkoniyati mavjud bo'lmaydi. Jamiyatning ekologiya borasidagi tafakkurida inson tushunchasi insonni tabiatga nisbatan qarama-qarshi emas, balki tabiatning bir qismi sifatida ko'radi. Bu bayonda ekologiya fikrining eng muhim maqsadi odamlarni ayrim mutaxassislar tomonidan kiritilgan reduksionistik tushunchadan qutqarish, inson va tabiat o'rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etishdan iborat.

Bundan kelib chiqqan holda milliy iqtisodiyotda va jamiyatda ekologik turizmning asoslari va uning rivojlanish tendensiyalari, tamoyillari va yutuqlari to'g'risida tushunchalarni shakllantirish talab etiladi. Shuningdek, ekologik turizm turlari va ularning yo'nalishlari, uning ijobiy va salbiy ta'sirlari, dunyoda ekologik turizmning rivojlanish tendensiyalari va uning istiqbollari, ekoturizm mijozlari va ularning o'ziga xos jihatlari, ekologik turizm qishlog'i va uning xususiyatlari kabi masalalar borasida chuqur tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayni

paytda, ekoturizm boshqa turizm turlari bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgani uchun ular bilan integratsiyalashgan tartibda jarayonni tashkil etish zaruriyat hisoblanadi.

Hozirgi taraqqiyot bosqichida ekoturizmning milliy iqtisodiyot va jamiyatning bu boradagi tafakkur tarzini rivojlantirishga o'ziga xos ijobiy ta'sirlari kelib chiqadi. Xususan, ekoturizm insonning tabiatga va uning imkoniyatlariga qat'iy bog'liq holda tashkil etiladi, jahonda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish tendensiyasi rivojlanayotganligi bu jarayonni rag'batlantiradi. Shuningdek, jahonda ekologik inqirozning muntazam ravishda chuqurlashib borayotganligi, ekologik muammolarning inson sog'lig'ida namoyon bo'layotgan o'ta salbiy asoratlari jamiyatda ekotafakkurning takomillashuviga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, insonning tabiiy mavjudotligi, kishilar ruhiyatida sog'lom tabiatga bo'lgan moyillik, xalqaro hamjamiyatning tabiatga munosabati va tarixiy tajribalar ekoturizm masalasini bugungi kunda ustuvor darajaga chiqargan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risidagi" Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019.
3. 2019 – 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi. <https://lex.uz/docs/4143188>.
4. Xaitboyev R. Ekoturizm asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: "Barkamol fayz media", 2018. – 248 b.
5. Norchaev A.N., Rabbimov E.T. Ekologik turizm. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010. -152 b.
6. Gulyamova G.P. Turizmدا institusional munosabatlar. O'quv qo'llanma. T.: "COMPLEX PRINT", 2019. – 240 b.
7. www.unwto.org.
8. <https://uzbektourism.uz>
9. www.stat.uz